



TIL ME'YORLARINING BUZILISHI. SABAB OQIBATLARI

Hilola Mamatqobilova

*Guliston davlat universiteti, "Filalogiya fakulteti tillarni o'qitish (o'zbek tili)
yo'nalish 1-kurs talabasi*

Annonatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda sodir bo'layotgan til me'yorlarining buzilishlarini tahlil qiladi. Asosan aksariyat yoshlarimiz orasida tarmoqlar orqali tilning zamonaviy shakillari, qisqartmalari, translet va aralash tillarda yozish, suhbatlashish holatlari kundan kunga ko'payin bormoqda. Hozirda bu holatlar til taraqqiyotiga xizmat qiladimi yoki ularning boyligiga putur yetkazadimi ushbu maqolaga albatta savolga javob izlaymiz va tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoq, o'zbek tili, tillarning buzilishi, zamonaviy til, aralsh til, tillarning o'zgarishi translet, til madaniyati.

Kirish

Til bu millatning ma'naviy boyligi hisoblanadi. Til nafaqat muomala vositasi ham balki xalqning madaniyati, urf-odatlar, ularning turmush tarzi, tarixi hamdir. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda va internet jamiyatning eng muhim tarmoqlaridan biriga aylangan. Ular nafaqat malumot almashishi, balki til va kommunikatsiya madaniyatining shakillanishiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. So'zlashuv va yozishmalarda ham yangi so'zlardan, aralashma, qisqartma, shuningdek, emoji'lar kabi vizual ifodalardan foydalanishi yurtimizga keng tarqalib ketdi. Aslida til va insonlar bir birisiz mavjud bo'la olishmaydiga tushunchalardir. Biz bilamiz insoniyat tarixida birinchi til rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan. Zamonaviy texnologiyalar ayniqsa, internet va ijtimoiy platformalar paydo bo'lishi insonlarning o'zona tilida muloqat qilishlarini (gapirish va yozish) usullarini butkul o'zgartib yubordi. Bugunbi kunda internet va aloqa vositalarni inson muloqati va tiliga kuchli ta'sir o'tkazmoqda. Bu jarayon albatta, tilning turli sohalarida tezkorlik bilan o'zgarishiga sabab bo'lyapti. Avvalari tilning barcha Grammatik qoidalari boshqargan bo'lsa, endilikda qulaylik, tezkorlik va muloqotning ta'sirchanligi asosiy omillaridan biriga aylandi. Ona tilimizning buzilish sabablarni juda ham ko'pdir ulardan asosiy buzilishi yoshlarning to'g'ri gapirmasligi yozmasligidir agar har bir yoshlar tilni to'g'ri qo'llasa hech qachon til buzulmaydi. Qolaversa, bugun yoshlarimiz barchasi lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida savod chiqargan. Ushu yozuvga ommaviy o'tilishi bir necha yillardan buyon cho'zilib ketgani, yoshlarning ish jarayonida krill alifbosiga majbur bo'layotgani ham xatoliklarni keltirib chiqarmoqda. Yana bir



holat shuki, bugungi tezkor axborot almashinuvi, ijtimoiy tarmoqlarda fikrni tezroq yetkazish ishtiyoqi imlo savodxonligini ikkinchi darajaga tushurib qo'ymoqda. Ijtimoiy platformalarda o'zaro yozishmalarni qo'ya turaylik, hatto rasmiy sayt va kanallarda ham ishoraviy, harifiy va uslubiy xatoliklarni juda ko'p kuzatamiz. Ana shunday xatoliklarni ko'rgan yoshlar buni esa albatta to'g'ri deb qabul qilishi mumkin. Aslida imlo sohasida kichikkina bo'lsada, yo'l qo'yilgan birgina xato tufayli ifodalamoqchi bo'lgan fikrimizni keskin o'zgartirib yuborishi ham mumkin. Tarixda ham ko'rishimiz mumkinki, agar o'sha tilde so'zlashmasa u til o'lik til deb qaraganlar. Aslida biror tilning o'lik tilga aylanishi bu o'sha millatning yo'qolishidir. Chunki, millatning o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omil unung tilidir. Mashhur shoir Rasul Hamzatov bir she'rida "Ona tilida so'zlangan suhbat o'lik tanga jon kiritishi" ya'ni ona tilida aytilgan birgina so'z ba'zan uzoq sukutlardan ham kuchliroq bo'ladi. Chunki ona til bu shunchaki aloqa vositasi emas, balki u yurakdan yurakka boradigan yo'ldir. Inson o'z ona tilida so'zlagan paytda, uning fikri nafaqat anglanadi, balki his qilinadi. Xuddi o'lik tanga qo'lga tushib, uning harakat qiyomat ba ma'no paydo bo'lgandek, ona tilidagi suhbat ham so'zlarga jon bag'ishlaydi. Demak til millatning ruhi, joni uning boyligi va borlig'idir. Shu nuqtai nazardan qaraganda bugun ellik millionga yaqin aholi so'zlashadigan tilimiz osongingina yo'q bo'lib qolmaydi. Qolaversa, davlatimiz rahbarining so'nggi yillarda til mavqeini oshirish, davlat til ustuvorligini ta'minlash borasidagi islohotlar ham maskur fukrlarni dadil ayta olishishga imkon berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-avgust kuni Toshken viloyatiga tashrifi davomida, viloyatdagi ko'cha va tashkilotlarning nimlari, peshlavha va e'lonlardagi yozuv tasvirlarining davlat tili qoida va me'yorlariga, qonunchilik hujjatlariga hamda milliy qadriyatlarga mos, bexato yozilganligi o'rganilishi va tartibga solinishi yuzasidan berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida, shaharda shakillantirilgan ishchi guruh a'zolari tomonidan Yangiyo'l shahar hududida tashqi targ'ibot vositalari, reklama va e'lonlarning to'liq lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yozilishini taminlash hamda O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi, "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining "Tashqi reklama bozorini solish to'g'risida"gi 104-sonli qarori talablariga muvofiq reklama obektlari, e'lon, peshlavhalar va boshqalar barcha turdagi tashqi yozuvlarning holati bo'yicha o'rganish ishlari olib borilmoqda. O'rganish davomida shahardagi noqonuniy o'rnatilgan reklamalar hamda imloviy xatolar bilan yozilgan peshtahtalar o'rganilib, kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rildi va zarur tavsiyalar berib o'tildi. Shu o'rinda aytish joizki, A Qahorning "Nima uchun ko'cha harakati qoidasini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun tilni buzayotgan odamlarga hech kim



hushtak chalmaydi?”, degan soʻzlari yodimizga tushadi. Shuning uchun ham reklamalarni toʻgʻri imlo savodxonlikka eʼtibor bergan holada yozish yoki tuzish kerak. Shundagina tilimizga boʻlgan hurmat ham oshadi.

Tilning buzilishiga bir nechta sabablari va oqibatlari mavjud.

1. Qisqa xabar yuborish va vaqtni tejash uchun soʻzlarni qisqartirish holda yozish
2. yoshlar orasida mashhur boʻlgan slanglar, “trendlar”ning tarqalishi, oʻziga xos guruh tilini yaratish.
3. Boshqa tillardan soʻzlarning(inglizcha) kiritilishi
4. Shaxsning nazorat ostida boʻlmasligi, bemaolol xatolarga yoʻl qoʻyishiga undaydi.
5. Emoji va qisqartmalar yordamida tezroq muloqot qilish.

Oqibatlari

1. Toʻgʻri yozish va gramatika qoidalariga rioya qilmaslik keng tarqaladi.
2. Turki avlodlar orasida ham hatto bir avlod vakillari oʻrtasida tushunish qiyinlashadi.
3. Anʼanaviy soʻzlar va Grammatik qoidalar unutilib boriladi.
4. Baʼzan tillarni yanda rang-barang qiluvchi yangi ifoda usullari (salbiy va ijobiy) paydo boʻladi.
5. Milliy til madaniyatining zaiflashuvi professional yozuvga tayyor boʻlmaslik.

Bundan tashqari tilni yanada soddalashtirish uzoq muddatda nuqtadagi chuqaur grammatika va stilistik murakkablikning yoʻqolishiga olib kelishi ham mumkin. Soʻnggi kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda avtomatik tarjima vositalaridan foydalanish til oʻrganishni yanada qulaylashtiradi. Masalan, Google Translete yoki boshqa integratsiyalashgan vositalar orqali foydalanuvchilar turli xil tillarni oʻrganish va tezkorlik bilan tarjima qilish imloniyatiga ega boʻladilar. Bu esa, bir tomondan til oʻrganishni yengillashtiradi, lekin boshqa tomondan, orginal til grammatikasiga eʼtiborni kamaytirishi mumkin. Shuning uchun oson yoʻni emas balki qiyinroq yoʻllar bilan hamma narsani oʻrgansa ham boʻladi faqat osongina oʻrgatadigan yoʻlni tanlamasligimiz kerakdir. Jamiyat va kelajagimiz uchun eng katta foyda hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maliyev G. (2024). Ijtimoiy tarmoqlarning til oʻrganish va foydalanish taʼsiri.
2. Ijtimoiy tarmoqlarda oʻzbek tiling buzilishi: Taqdimi yoki zamon talabi(2025)
3. <https://uza.uz>
4. Oʻza muhbiri Zarif Komilov



5. “E’lonlarda til xatolari” maqolasi –Xalq so’zi gazetasi, 2024-yil 15-fevral soni
6. <https://yangiyol> shahar